

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

BIZNESGA KIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60410800 – Menejment

Fan/modul kodi BK1105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Biznesga kirish	60		90	150
2.	I. FANNING MAZMUNI. Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalar va mutaxassislarga biznesga kirish, uning asosiy prinsiplari, predmeti va uslublari, biznes menejmentning funksiyasi, ilm- fan muassasalarida innovatsiyalarni boshqarishning xususiyatlari nazariy asoslari hamda amaliy jihatlarini bo‘yicha chuqur bilim berishdir. Mulkchilik munosabatlari shakllari, biznes sub’yektlarini moliyaviy boshqarishni o‘rgatish, tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish, biznes etikasi va psixologiyasi, moliyaviy institutlar va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida tushunchalar berish. Fanning asosiy vazifalari – talabalar tomonidan biznesga kirish tizimining asosiy tamoyillari haqida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallash; biznes boshqaruv tizimining ahamiyatini tushuntirish ko‘nikmalarini shakllantirish; agrobiznes o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar berish va biznes rejani to‘g‘ri tuzish qobiliyatini rivojlantirish Fanning asosiy manbalari: Har bir fan, o‘z manbalariga ega bo‘lib, ushbu manbalar asosida rivojlanganidek, mamlakatning oliy vakillik organi xamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar biznesni to‘g‘ri tashkillash manbasi bo‘lib hisoblanadi. Biznesga kirish fanining manbalariga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Moliya va soliqqa oid O‘zbekiston respublikasi qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlar, soliq statistikasi va hisobotlar tushuniladi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: “Biznesga kirish” fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri – Al-Farabi nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti (KazNU) o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan va milliy sharoitga moslashtirilgan holda takomillashtirilgan. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: KazNU biznes, menejment, iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlarida chuqur ilmiy-uslubiy bazaga ega bo‘lib, ushbu fan dasturida xalqaro biznes boshqaruvi tajribalari, innovatsion biznes modellar, raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalari o‘z aksini topgan. Biznesga kirish fani KazNUda shakllantirilgan ilg‘or ilmiy-uslubiy salohiyat asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda zamonaviy biznes nazariyalari va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unlashtirilgan. Dastur talabalarni tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, bozor muhitini tahlil qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, biznes-rejalar tuzish, risklarni baholash va xalqaro biznes amaliyotlarini chuqur o‘zlashtirishga tayyorlaydi.				

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar biznes-reja tuzish, loyihalarni boshqarish, startaplarni moliyalashtirish, raqamli marketing, korporativ boshqaruv, soliq va huquqiy muhitni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Fan xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, bitiruvchilarga xususiy sektor, kichik va o'rta biznes, yirik korporatsiyalar, konsalting kompaniyalari hamda xalqaro tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Biznesga kirish" fanining mohiyati va ahamiyati.

Biznes tushunchasi va uning mohiyati. Biznesni iqtisodiyotda tutgan o'rni. Biznesni iqtisodiyotda tutgan o'rni.

2-mavzu: Tadbirkorlik shakllari va uni tashkil etish.

Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy shakllari Yakka tartibdagi tadbirkorlik. Hamkorlik (umumiy va cheklangan) Korporatsiyalar (mulkchilik shakllari) Tadbirkorlikni tashkil etish, biznes-modellar. Tadbirkorlikni rivojlantirish va startap ekotizimi kompetensiyasi.

3-mavzu: Tadbirkorlik sub'ektlarini boshqaruv asoslari.

Boshqaruv asoslari. Boshqaruv metodologiyasi. Boshqaruv funktsiyalari. Xodimlarni yollash va ularni boshqarish.

4-mavzu: Biznes etikasi va psixologiyasi.

Rahbar etikasi va madaniyati. Biznesmenning axloq kodeksi. Biznes jamoasini shakllantirish Biznesni boshqarishda ruhiy psixologik xususiyatlar mazmuni.

5-mavzu: Tadbirkorlik sub'ektlarini korporativ boshqaruv.

Korporativ boshqaruv tushunchasi. Aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruvining institutsional asoslari. Korporativ boshqaruv modellari.

6-mavzu: Tadbirkorlik va marketing.

Biznes faoliyatida marketingning ahamiyati. Bozor segmentasiyasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Marketing dasturi va tadqiqotlaridan foydalanish. Reklama faoliyatini tashkil etish. Marketing strategiyalari va bozorni o'rganish. Bozor kon'yunkturasini o'rganish, marketing qarorlarini qabul qilish.

7-mavzu: Biznes subektlarini moliyaviy boshqarish.

Moliya tushunchasi va uning biznesda ahamiyati. Moliya bozori tushunchasi va vazifalari. Moliyalashtirish turlari va shakllari.

8-mavzu: Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish.

Biznes rejalashtirishning mohiyati va tushunchasi. Biznes-rejaning maqsadi, maqsadlari va vazifalari. Biznes-rejani ishlab chiqish tartibi. Startup loyihalarni ishlab chiqish

9-mavzu: Biznesda motivasiyaning ahamiyati.

Motivasiya tushunchasi evolyusiyasi. Motivasiyada jarayonni nazariyalarning amal qilishi. Porter-Louler modeli. Motivasiya va ish xaqi

10-mavzu: Biznesda tavakkalchilikni boshqarish.

Tavakkalchilik va xavf-xatarning ahamiyati. Tavakkalchilik turlari va ularni boshqarish. Bozor kon'yunkturasini o'rganish va turlari Raqobat tushunchasi. Raqobat strategiyasi

11-mavzu: Biznes tahlili va uning usullari.

SWOT tahlil. PESTLE tahlil. MOST tahlil SMART tahlil

III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Biznes tushunchasi va uning turlari
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati
3. Tadbirkorlik subyektlari va ularning huquqiy maqomi
4. Startaplar va ularning rivojlanish bosqichlari
5. Biznes-reja tuzish: asosiy bosqichlar
6. SWOT tahlil: kompaniya yoki g‘oyani baholash
7. Marketing strategiyasini ishlab chiqish
8. Raqobatchilarni tahlil qilish usullari
9. Mahsulot yoki xizmatning hayotiy tsikli
10. Biznesda moliyaviy rejalashtirish va byudjet tuzish
11. Narx belgilash strategiyalari
12. Mijozlarni aniqlash va ularning ehtiyojlarini o‘rganish
13. Savdo va mijozlarga xizmat ko‘rsatish strategiyalari
14. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish
15. Xodimlar boshqaruvi: ishga olish va rag‘batlantirish
16. Liderlik va menejment uslublari
17. Biznesda qaror qabul qilish jarayoni
18. Risklarni boshqarish va tahlil qilish
19. Innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va baholash
20. Soliqlar va ularning biznesga ta‘siri
21. Biznes muhitini o‘rganish (PEST tahlil)
22. Onlayn biznes va elektron tijorat asoslari
23. Ijtimoiy tarmoqlarda marketing strategiyasi
24. Franchayzing asosida biznes boshlash
25. Biznesda axborot texnologiyalarining roli
26. Kichik biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi
27. Mahalliy va xalqaro bozorlarda eksport imkoniyatlari
28. Investitsiya jalb qilish usullari
29. Biznes etikasi va korporativ ijtimoiy mas‘uliyat
30. O‘z biznes g‘oyangizni taqdim etish (Pitching)

IV. MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhiiy o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriyy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Biznes tushunchasi va uning mohiyati.
2. Biznesni iqtisodiyotda tutgan n'ni,
3. Xodimlarni yollash va ularni boshqarish.
4. Moliya tushinchasi va uning biznesda ahamiyati.
5. Biznes rejalashtirishning mohiyati va tushunchasi.
6. Porter-Louler modeli. Motivasiya va ish haqi.
7. Tavakkalchilik va xavf-xatarning ahamiyati
8. Bozor kon'yunkturasini o'rganishda raqobat tushunchasi 2 4 2 30
9. Start up loyihalarni ishlab chiqish
10. Biznesda SWOT tahlil, PESTLE tahlil, MOST tahlil, SMART tahlil
11. Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati
12. O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish strategiyalari
13. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yuritish tartibi
14. Biznes rejaning tarkibiy qismlari va ularni to'ldirish qoidalari
15. Zamonaviy tadbirkorlikda raqamli texnologiyalarning o'ni
16. Startap g'oya: tanlash, asoslash va amalga oshirish yo'llari
17. Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari
18. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda biznes muhitining solishtirmali tahlili
19. Franchayzing asosida faoliyat yuritishning afzallik va kamchiliklari
20. Xususiy mulk va uning biznesdagi roli
21. Bozordagi talab va taklifni aniqlash usullari
22. Biznesda ijtimoiy tarmoqlarning marketingdagi o'ni
23. Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish manbalari
24. Biznesda qaror qabul qilish: nazariyalar va amaliyot
25. Mijozlar ehtiyojlarini o'rganish va tahlil qilish usullari
26. Tadbirkorlik faoliyatining yuridik asoslari
27. Korxonani tashkil etish: hujjatlar va ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari
28. Biznesda ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish

	29. O‘zbekistonda soliq tizimi va tadbirkorlikka ta’siri 30. Mahalliy bozorda raqobatbardosh mahsulot yaratish 31. Startaplar uchun biznes inkubatorlar va akseleratorlar 32. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari 33. Biznesda etik qadriyatlar va axloqiy me’yorlar 34. Xalqaro biznes aloqalar va ularning istiqbollari 35. Mahsulot brendini yaratish va uni targ‘ib qilish bosqichlari 36. O‘zbekistonning “Yagona darcha” tizimi va uning afzalliklari 37. Biznes jarayonlarida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari 38. Servis xizmatlari sohasida tadbirkorlik faoliyati 39. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish istiqbollari.
3.	V. TA’LIM NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR) Talaba bilishi kerak: Ushbu fanni muvoffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikinalarga ega bo'ladi: 1. Boshqaruvning mohiyati, predmeti va uslublari, uning asosiy prinsiplari, faoliyatini bilib oladi. 2. Biznes boshqaruvning mohiyati va zarurligini ko‘rib chiqqan holda, talabalarda shu sohada nazariy va amaliy professional bilimga ega bo'ladi. 3. Biznes menejmentining funksiyalari, usullari va uning turlari bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o‘rganadi va foydalanishni biladi. 4. Biznes boshqaruvda xodimlarni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish strategiyasini tanlash bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o'rganadi va foydalanishni biladi. 5. Biznes sub'ektlari personalini boshqarish to'g'risida bilib oladi. 6. Biznesda korporativ boshqaruvning mazmuni, evolusiyasi va strategiyalar ishlab chiqish, strategik qarorlarni mustaqil qabul qila olish imkoniyatiga erishadi. 7. Agrobiznes boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilib beradi. 8. Biznesda rejalashtirish ahamiyati, moliyaviy ko'rsatkichlar zarurligi moliyaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyoti yo'nalishlarini ishlab chiqishni bilib oladi. 9. Biznes boshqaruvining axborot ta'minotini amalga oshirishni o'rganadi. 10. Biznesni davlat tomonidan boshqarish to'g'risidabilim va ko'nikmagaega bo'ladi. 11. Kadrlar bilan ishlashni tashkil etish tamoyillari va texnologiyalari ahamiyati va vazifalari to'g'risida ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. (malaka)
	VII. MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR: – Tadbirkorlik va biznes tushunchalari o‘rtasidagi farq nimada? – Kichik biznes va yirik biznes o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring. – Biznes-reja tuzishda bozor tahlilining o‘rni qanday? – Mijoz ehtiyojini aniqlashning asosiy usullari qanday? – Biznes etikasi nima? Misollar keltiring. – Biznesda moliyaviy boshqaruvning ahamiyati nimada?
4.	VIII. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI: • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg‘ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar;

	• jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish
6.	ASOSIY ADABIYOTLAR: 1. Ishmuxammedov B.J. Основы бизнеса: учебное пособие-Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi»-2021, 240 c. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud). QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR: 1. Mehta N. In one touch. Business strategies of Google, Apple, Facebook, Amazon and other corporations ! N. Mehta - "Peter", 2019 — (IT for business). 2. Rybakov M. Yu. Business strategy: how to create and implement it with the active participation of the team. Workshop / M. Y. Rybakov -2019 3. Ishmuxamedov B.J., Abdurasulov A.A. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. -Т.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018, - 143 bet. 4. Круглова, Н.Ю. Основы бизнеса (предпринимательства): Учебник / Н.Ю. Круглова. - М.: КноРус, 2018. - 77 с. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud). AXBOROT MANBALARI: 1. www.gov.uz - Government portal of the Republic of Uzbekistan. 2. www.lex.uz - National database of legislative acts of the Republic of Uzbekistan. 3. www.mineconomy.uz (Ministry of Economy of the Republic of Uzbekistan) 4. www.mf.uz (Ey o'zbekiston Moliya vazirligi o'zbekiston Respublikasi) 5. www.stat.uz (Ey o'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi) 6. www.ima.uz (Agency of property of the Republic of Uzbekistan) www.academy.uz (Academy of Sciences) 7. farabi.university 8. welcome.kaznu.kz 9. ft.kazast.kz
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	FAN/MODUL UCHUN MAS'ULLAR VA DASTUR MUALLIFLARI: D.Mamayusupova – Qo'qon DU, Geografiya va iqtisodiyot kafedrasida dosenti, i.f.f.d.
9.	TAQRIZCHILAR: M.Nurmatova - Qo'qon DU, Geografiya kafedrasida o'qituvchisi, p.f.f.d.